

QADIMGI RIM IMPERATORLARI HAYOTI, ULARNING HARBIY SALOHIYATI VA DAVLAT BOSHQARUVI

Ergashev Yoqub Yusupovich

Shoberdiyev Shodmon Aliqul o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Tarixda O'rta yer dengizining butun qirg'og'iga egalik qilgan yagona davlat. Rim imperiyasining mavjudligi xronologik doirasi birinchi imperator Oktavian Avgustning hukmronligidan imperiyaning G'arbiy va Sharqqa bo'linishi va G'arbiy Rim imperiyasining 476 yilda qulashidir. Rim imperiyasining sharqiy qismi Konstantinopolda 1453-yilgacha mavjud bo'lgan.

Kalit so'zlar: Avgust, Tiberiy, Kaligula, Neron, Druzilla, Germanik, Nerva, Domitsiyan, Trayan, Sarmat qabilalari, Dakiya, Detsibal, Andrian, Odoakr.

Miloddan avvalgi I asrning o'rtalarida Yuliy Sezar doimiy diktator etib tayinlangan va keyin miloddan avvalgi 44-yilda o'ldirilgan. Fuqarolik urushlari va sud jarayonlari davom etdi va miloddan avvalgi 31-yilda Mark Antoni va Kleopatra ustidan g'alaba qozongan Oktavianning g'alabasi bilan yakunlandi. Keyingi yili Oktavian Ptolemey Misrini bosib oldi, mil. avv. IV asrda Makedoniyalik Aleksandrning fathi bilan boshlangan ellinistik davrni tugatdi. O'shandan keyin Octavianning kuchi bekor bo'ldi va miloddan avvalgi 27-yilda Rim Senati unga birinchi marta Rim imperatori unvonini berdi, unga katta kuch va Avgust degan yangi unvonini berdi. Davlat tuzumi respublika shaklidagi monarxiyaga o'xshaydi. Unda ilgariidek, Senat va respublika lavozimlari saqlanib qolgan, ammo butun hokimiyat Avgust qo'l ostiga o'tgan. Xalq majlisining ta'siri tugagan. Avgust mamlakatning yirik quldorlari va Rim armiyasiga tayanib ish ko'rgan. Avgust o'z tashqi siyosatida g'arbga nisbatan bosqinchilik siyosati yurgizgan bo'lsa, sharqqa nisbatan diplomatik muzokaralar yordamida Rim davlatining hokimligini yoyishga intildi. Keyinchalik "avgust" imperatorlar unvonini anglatuvchi atamaga aylangan.

Rimning ikkinchi imperatori Tiberiy jiyani Germanikni voris farzand sifatida

asrab oldi. Bu tanlov juda muvaffaqiyatli edi, chunki Germanik o'zini yaxshi harbiy rahbar va tajribali siyosatchi sifatida ko'rsatdi. Undan yaxshi imperator chiqardi, ammo taqdir juda injiq. Germanik milodiy 19-yilda 34 yoshida Antioxiyada vafot etadi. Tarixchilar tomonidan uning zaharlangani taxmin qilinadi. U vaqtlarda bunday ishlar oddiy hol edi. Germanikning 9 farzandi bor edi. Uchinchi o'g'liga Gay Yuliy Sezarga Kaligula deb ism qo'ydi. U imperator Kaligula sifatida tarixga kirdi. Germanikning to'ng'ich o'g'li Neron 31-yilda o'ldi. 33-yilda ikkinchi o'g'li Druz halok bo'ldi. Bu yoshlar saroy fitnalari natijasida dunyoni tark etdi. Ammo Kaligula omadli chiqdi. U akalaridan ancha yosh edi hamda Tiberiyning onasi himoyasi va qaramog'ida bo'ldi.

Klavdiy Tiberiy Klavdiy Neron Germanik (miloddan avvalgi 10 yil — milodiy 54 yil)— Rim imperatori (41—54 yillar), yuliyklar-klavdiyklar sulolasidan. Klavdiy imperiya byurokrtiyasiga asos solgan, davlatning moliyaviy ahvolini yaxshilagan, soliq tizimini tartibga solgan, provinsiyalardagi jamoalarga ham Rim fuqaroligi huquqini in'om etgan.

Neron — Rim imperatori (54—68); Yuliyklavdiyklar sulolasidan. Bag'ritosh, takabbur, maishatboz bo'lgan. 59 yil Oktaviyga onasini o'ldirishni, 62 yil esa xotinini o'ldirishni buyurgan. 64 yil Rimning katta qismiga o't qo'ygan, bunda uni qo'li borligida shubha qilishmasligi uchun Rim xristianlarini ta'qib eta boshlagan. Keyinchalik shaharni tiklash uchun provinsiyalar aholisidan olinadigan soliqlarni keskin oshirgan. Bu Neronga karshi norozilikni kuchayishiga sabab bo'lgan. Neron qatag'on siyosati va aholi mol-mulkini musodaratarishidan qilish bilan Rim jamiyatining turli qatlamlarini o'ziga qarshi qilib qo'ygan. Xalq ko'zg'olon ko'xavfsirab, Rimdan qochgan va o'zini o'zi o'ldirgan.

Beshta Yaxshi Imperator sifatida nom qoldirgan hukmdorlar — Nerva (96–98-yillar hukmronlik qilgan), Trayan (98–117), Adrian (117–138), Antonin Piy (138–161), Mark Avreliy (161–180). Beshta Yaxshi Imperator deb nomlanishiga sabab Nerva va Trayanni o'z ichiga olgan hukmdorlar beshligi davrida Rimda tinchlik hukm surgan va hayot gullab yashnagan. Nervaning taxtga chiqishi bilan boshlangan Nerva-Antoninlar sulolasi ko'pincha Rim imperiyasining “oltin davri”

hisoblanadi

Nerva milodiy 71- va 90-yillarda ikki marta konsullikka saylangan. Amaldagi imperator Domitsian shafqatsiz yakkahukmdor edi. Shu sababdan ham u bilan Senat o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Oqibatda, Domitsian senatning vakolatlarini cheklab qo'yadi. Bunga javoban milodiy 96-yilda saroy amaldorlari imperatorni o'ldiradi, so'ng taxtga Nerva o'tiradi. Biroq askarlar buni unchalik xush ko'rmaydi va 69-yilda endi imperatorlar faqat Rim aristokratlaridan saylanishi shart emasligi, Rimdan boshqa joylardan ham imperator chiqishi mumkinligi e'lon qilingach, ular Nervaga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Imperator Nerva boshqaruv usulining asosiy yo'nalishi sobiq imperator Domitsian o'rnatgan zulmkor tartibdan voz kechishdan iborat bo'lgan. Uning davrida qishloq xo'jaligi sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirilgan va Rim tarixidagi so'nggi xalq qonunlari (lex populi) ishlab chiqilgan. 96–98-yillarda hukmronlik qilgan Nerva oliyhimmat va liberal siyosat olib bordi.

Imperator Trayan harbiy sohada juda shijoatli faoliyat olib bordi. U qadimgi Eron ko'chmanchi xalqlari — sarmat qabilalarini parchalash va imperiya atrofidagi dushmanlar xavfini yo'qotish uchun Dakiyani (Transilvaniyaning tarixiy hududini qamrab olgan qadimiy sivilizatsiya) ham Rim hududiga aylantirib, Dunay chegarasini mustahkamlashga qaror qildi. Trayan maqsadini amalga oshirish uchun 100 000 kishilik qo'shin bilan ikki marta (101–102 va 105–106) og'ir janglar olib bordi. Dakiya qiroli Detsibalni yengib, yerlarini Rim imperiyasiga qo'shib oldi. U yerlarga esa imperiyaning qo'shni qismlaridan kelgan aholini joylashtirdi. Keyinchalik 114-yilda Trayan yana bir katta qo'shin to'plab, Armaniston vassal-qirolligini Rimga qo'shib oladi va Parfiyaga bostirib kiradi. 115–116-yillardagi ajoyib g'alabalardan so'ng u Shimoliy Mesopotamiya, Ossuriya kabi qo'shimcha viloyatlarni shakllantirib, Fors ko'rfaziga yetib boradi. Imperator Trayan harbiy sohada juda shijoatli faoliyat olib bordi. U qadimgi Eron ko'chmanchi xalqlari — sarmat qabilalarini parchalash va imperiya atrofidagi dushmanlar xavfini yo'qotish uchun Dakiyani (Transilvaniyaning tarixiy hududini qamrab olgan qadimiy sivilizatsiya) ham Rim hududiga aylantirib, Dunay chegarasini mustahkamlashga

qaror qildi.

Orest o'g'lining hokimiyatdagi nomzodini ilgari surish uchun u yangi tayinlangan qo'mondonligidan foydalandi. 475-yilning 28-avgustida Orest 402-yildan keyin Rim imperiyasining poytaxti deb hisoblangan Ravennada boshqaruvini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi. Orest qo'shinlari tomonidan mag'lub etilgan Yuliy Nepos Dalmatiyaga ko'chib ketdi. Imperiyaning boshqaruvini o'z qo'lida olib qolishdan ko'ra, Orest uni 14 yoshli o'g'liga topshirishga qaror qildi. Shunday qilib, Romul g'arbiy Rim imperiyasining imperatori etib tayinlandi. Romul davriga kelib, imperiya parchalanish arafasida edi. Uning iqtidorga kelishidan oldin asr davomida imperiya o'zining asosiy qudrati va yerining katta qismini yo'qotgan edi. Bu paytda sharqiy imperiya (Vizantiya imperiyasi) tobora boyib, uning hukmdorlari g'arbni ham bosib olishga tahdidlarni boshlab yuborgan edi.

Odoakr — G'arbiy Rim imperiyasi imperatori armiyasidagi yollanma german otryadlaridan birining rahbari. German qabilasidan. 476 yil 22 yoki 23 avgustda G'arbiy Rim imperiyasining so'nggi imperatori Romul Avgustulni taxtdan ag'dargan, o'zini Italiya hokimi deb e'lon qilgan. 493 yil Odoakr davlati ostgotlar tomonidan zabt etilgan, Odoakr esa o'ldirilgan.

Poytaxti — Konstantinopol shahri bo'lgan. Mamlakatning nomi Bosfor sohilidagi yunon polisi — Vizantiydan olingan. Aholisi — yunonlar, suryonilar, qibtiylar, armanlar, gurjlar va boshqalardan iborat bo'lgan. Davlat tili IV-VI asrlarda lotin tili, keyinchalik yunon tili bo'lgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanish darajasi, shahar turmushining jo'shqinligi jihatidan o'sha davrda Vizantiya G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ancha ilgarilab kettan edi. Arabiston, Qora dengiz bo'yi, Eron, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq bir oz ko'paydi. Vizantiya geografik jihatdan qulay joylashganligi tufayli Sharq bilan G'arb o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga sabab bo'lgan, siyosiy va harbiy markazga aylangan.

527-565-yillarda Imperator Yustinian I hukmronligi davrida ma'muriy va huquqiy islohotlar o'tkazilgan. Markaziy davlat mustahkamlangan va kuchli armiya

vujudga keltirilgan. Bu esa Yustinianga 533-534-yillarda Shimoliy Afrikadagi vandallar davlatini, 555-yilda Italiyadagi ostgotlar qirolligini, janubiy-sharqiy Ispaniyani bosib olish imkonini bergan. VI asrning so'nggi o'n yilligi va VII asr boshlarida ichki tanazzul va tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklar ro'y berdi. Armiyada g'alayon boshlandi, keng xalq ommasi unga qo'shildi. VI asr oxiri VII asr boshlarida Vizantiya hududining anchagina qismini slavyanlar ishg'ol etgan. VII asrning 70-yillarida Vizantiyaning shimoliy-g'arbiy chegarasida qadimiy bulg'orlar davlati — Bulg'oriston barpo bo'lgan.

Konstantinopolning fathi. Vizantiya imperiyasining poytaxti Usmonlilar imperiyasi tomonidan qamal qilinib, so'ngra bosib olinishidir. Shaharni qamal qilish 1453-yil 6-aprelda boshlangan va 53 kun davom etgan. 1453-yil 29-mayda shahar butunlay taslim bo'lgan va bir vaqtlar dunyoning eng kuchli davlatlaridan bo'lgan Vizantiya imperiyasi qulagan.

Xulosa: SHuni xulosalash kerakki, G'arbiy Rim imperiyasining hukmronligiga 476 yil German qabilalari sarkardasi Odoakr chek qo'ygan bo'lsa, SHarqiy imperiya tepasidagi hukmdorlar hukmiga 1453 yil turklarning Usmonli imperiyasi uzil-kesil nuqta qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zME
2. Jahon tarixi. D. Urakov. R. Tursunov va boshq
3. Qadimgi dunyo tarixi. R. Rajabov
4. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 392-397.
5. Chorshanbiyev, B. R., & Ollomurodov, N. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI XO 'JALIGI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1 SPECIAL), 417-419.

6. Boytora, C., & Nurali, O. (2023). Amir Temur and the Times of the Temuris Mints and Monetary Policy. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 16, 1-4.
7. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). O 'ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARIDA UY-JOY QURILISHIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 25-28.